

PSIXOLINGVISTIKADA TIL VA NUTQ MUNOSABATI

Xabibullayeva Nafisa Sherali qizi
NamDU Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixolingvistikada til va nutq munosabatlari yoritilgan hamda nutqning shaxs psixikasiga ta'siri ifodalangan.

Kalit so'zlar: nutq, til, jamiyat, yosh grammatikachilar, Ferdinand de Sossyur ta'limoti, psixologiya, psixolingvistika, materialistik monizm, atomizm, nutqiy faoliyat

Abstract. This article describes the relationship between language and speech in psycholinguistics and the impact of speech on the psyche of a person.

Key words: speech, language, society, young grammarians, teaching of Ferdinand de Saussure, psychology, psycholinguistics, materialistic monism, atomism, speech activity.

Абстрактный. В данной статье описываются взаимоотношения языка и речи в психолингвистике и влияние речи на психику человека.

Ключевые слова: речь, язык, общество, молодые грамматисты, учение Фердинанда де Соссюра, психология, психолингвистика, материалистический монизм, атомизм, речевая деятельность.

Til jamiyat uchun xizmat qiladi, jamiyat a'zolari muloqotini ta'minlaydi. Til insoniyat tarixini o'zida aks ettiruvchi vosita bo'lib, uning shakllanishi, rivojlanishida belgilovchi ahamiyatga ega. "Til, uning amaliy ifodasi bo'lgan nutq inson tafakkuri, ruhiyati, madaniyati, urf-odati va shaxsiy kamoloti bilan bog'liqdir. Tilshunoslik fanining o'rganish obyekti murakkab tuzilishga ega, biologik, fiziologik, ijtimoiy jarayonlar mahsuli bo'lgan tildir. Shuning uchun bu sohani har tomonlama chuqur o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir".¹ Qolaversa, tilshunoslikni faqat nazariy fan deb emas, balki tatbiqiy va amaliyot uchun kerakli, ya'ni insonlar muloqoti uchun zarur fan sifatida baholash lozim. Bu fanni o'rganuvchi soha esa *tilshunoslik* deb yuritiladi.

Tilshunoslik ijtimoiy fan sifatida bevosita tabiiy va gumanitar fan sohalari bilan integratsiyaga kirishadi. Jumladan, o'rganish obyekti shaxs ruhiyati va undagi hissiy o'zgarishlar bo'lgan *psixologiyani* tilshunoslik bilan kesishish nuqtasi *psixolingvistika* deb ataladi. "Nutqiy faoliyat bir tomondan tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lsa, ikkinchi tomondan psixologiyani ham tekshirish predmeti sanaladi"²

¹ Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent, 2007. — 14 b.

² Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar.

Psixolingvistika atamasi amerika olimlari tomonidan ilmiy hayotga olib kirildi. Ilk marta bu atama 1946-yilda amerika psixologi N.Pronko tomonidan “Til va psixolingvistika” nomli maqolasida qo‘llaniladi. Tilshunoslikda psixologik yo‘nalish ancha davrlardan buyon hukm surib kelayotgan til mohiyatini mantiqiy asosda yoritishga qarama-qarshi ravishda XIX asarning 50-yillarida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga keldi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, komparativistika — tilshunoslikning qarindosh tillarni, ya‘ni genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq tillarni o‘rganuvchi, ular o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi hamda ularning zamon va makon bo‘yicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi sohasi; til oilalarining, shu tizimlardagi ayrim tillar va elementlarning kelib chiqishini aniqlash, jumladan, tillar o‘rtasidagi genetik qarindoshlikni — ularning yagona bir manba (bobo til)dan kelib chiqqanligini aniqlash (tillarning genealogik tasnifi) ham qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning o‘rganish obyektlari doirasiga kiradi.

Ijtimoiy va madaniy rivojlanish natijasida XIX asrning 70-yillariga kelib komparativistika tadqiqot mezonlari tilga oid yangi faktlarni tavsiflay olmay qoldi. Natijada, tilshunoslik sohasida yangi oqim - “Yosh grammatikachilar” paydo bo‘ldi *“Yosh grammatikachilar”* maktabi a‘zolari psixologik yo‘nalishga zid ravishda yangi tadqiqot usullari va nazariyalarni yaratishdi. “Ular qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tillarni qiyoslab o‘rganishga, bobo til shakllarini xayolan tiklashga asosiy e‘tiborni qaratgani, oqibatda so‘zlovchi shaxsning o‘zi nazardan chetda qolganligi eng katta kamchilik ekanligini ta‘kidlaydilar “. ³ Yosh grammatikachilar tilga har bir shaxs uchun alohida xarakterga ega bo‘lgan individual hodisa, deb yondashishdi. Ular tilda individual psixofizik (yoki psixofiziologik) o‘zgarishlar individning “odatdagi nutqiy faoliyati” natijasida sodir bo‘ladi, deb hisoblaydilar. Shu fikrga asoslanib yosh grammatikachilar birinchi navbatda jonli tillarni o‘rganishga chaqirdilar, chunki qadimgi o‘lik tillarga nisbatan jonli tillar tilning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochishga ko‘proq manbaa taqdim eta oladi.

XIX asrning o‘rtalarida tabiiy fanlarda qo‘lga kiritilgan yutuqlar barcha fanlarning tadqiqot metodologiyasiga katta ta‘sir qildi. Bevosita kuzatishda berilgan hodisalarni faqat ro‘yxatga olish bilangina cheklanmasdan, ularni umumlashtirishga, ular zamirida yotgan mohiyatlarni aniqlashga o‘tish harakati tufayli deduktiv tamoyil o‘rin ola boshladi.

Tilni o‘rganishning bunday yangi tamoyilining asosiy belgilari Boduen de Kurtene asarlarida namoyon bo‘ldi. Boduen de Kurtenening lingvistik konsepsiyasi negizida *materialistik monizm* yotadi. Tilga monistik qarash uni ijtimoiy-individual

- Toshkent: O‘qituvchi, 1996. - 160 b.

³ Qo‘ziyev U., Grammatika oid terminlarning qisqacha o‘quv lug‘ati. - Toshkent: Tafakkur, 2021. - 47-b.

holatda amal qiluvchi psixosotsial mohiyat sifatida talqin qilishga olib keladi. Ya'ni bu xuddi falsafiy kategoriyalardagi umumiylik va xususiylik kabidir. Jamiyat va til umumiy bo'lsa, har bir shaxs nutqi xususiydir, har kim o'z salohiyatidan kelib chiqib nutq hosil qiladi. Boduen de Kurtene fikricha, til muayyan bir jamiyatni tashkil etgan individlar ongida, individlar psixikasida, individlar tili sifatida yashaydi. Nutq – inson psixologiyasining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, boshqa psixologik jarayonlarni boshqarib, bir biriga bog'lab turadi. Inson ongidagi tafakkur va tasavvur qilish jarayonlari nutq faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson fikrlash faoliyati – nutqiy tafakkurni paydo qiladi. Nutqning rivojlanishi boshqa psixologik jarayonlarning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Shuning uchun Boduen de Kurtene o'z tadqiqotlarida individlar nutqiga asosiy e'tiborini qaratdi.

Ferdinand de Sossyur ham yosh grammatikachilarning individual til haqidagi g'oyasini davom ettirgan holda, tilda individuallik va sotsiallik o'rtasidagi munosabatga asosiy to'xtaldi. “Nutqiy faoliyat (Language) sotsiallik bilan individuallikni o'zida birlashtirgan murakkab jarayon ekanligini e'tirof etadi. U o'zaro dialektik aloqada bo'lgan til (La langue) va nutq (parole) ning munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligini izchil ravishda ilmiy asoslab berdi”.⁴

Nutqiy faoliyatni til va nutqqa ajratar ekan, bu bilan F.de Sossyur sotsiallikni individuallikdan, muhimni nomuhimdan, qo'shimcha, tasodifiy holatlardan farqlanishini bayon qiladi. Bu orqali F. de Sossyur “til” va “nutq” o'rtasidagi farqni ko'rsatib beradi. Ya'ni tilning leksik bazasi barcha uchun umumiy bo'lsa, har kim o'z psixologik va ruhiy holatiga tayanib bu “xom-ashyo”ni “mahsulot”ga aylantiradi, muloqot jarayoniga olib kiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, til va nutqning psixologik faoliyatda tutgan o'rni beqiyosdir. Nutqning paydo bo'lishi bilan birga insonning psixologik va ruhiy doirasi ham rivojlana boshlaydi. Masalan, qabul qilish, xotira, tafakkur, tasavvur, e'tibor kabilar faqatgina til tufayli rivojlana boradi. R.S. Nemovning fikriga ko'ra, maktabgacha bo'lgan davrda odam muloqotining ontogenetik taraqqiyoti bosib o'tadigan asosiy bosqichlarni quyidagicha tasavvur qilib, ta'riflash mumkin:

1. Tug'ilgandan 2-3 oylikkacha bo'lgan yosh davri. Mazmun jihatidan biologik bo'lgan, bolaning hayotiy ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lib xizmat qiluvchi aloqaviy muloqot. Muloqotning asosiy vositasi – sodda mimika va oddiy imo-ishoralar.

2. 2-3 oylikdan 8-10 oylikkacha yosh davri. Asosiy his-tuyg'u organlari faoliyatining boshlanishi va yangi taassurotlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan bilish muloqotining dastlabki bosqichi.

⁴ Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar.
- Toshkent: O'qituvchi, 1996. - 160 b.

3. 8-12 oylikdan taxminan 1,5 yoshgacha bo'lgan davr. Kognitiv ehtiyojlarga xizmat qiluvchi boshqariladigan, verbal-neverbal muloqot. Tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishga o'tish.

4. 1,5 yoshdan 3 yoshgacha. Jismlil faoliyat va o'yinning paydo bo'lishi bilan bog'liq faoliyat va o'yin muloqotining yuzaga kelishi. Faoliyat va shaxs muloqotiga bo'linishning dastlabki bosqichi.

5. 3 dan 6-7 yoshgacha bo'lgan davr. Tabiatdan berilgan turli xildagi tabiiy belgilar yoki orttirilgan muloqot vositalarini ixtiyoriy ravishda tanlash va ulardan foydalanish. Syujetli-rolli o'yinlarga jalb qilish asosida paydo bo'ladigan syujetli-rolli muloqotning rivojlanishi.

Endi esa yana bir statistika e'tibor qaratsak, quyida yangi tug'ilgan chaqaloqning so'z boyligi uning rivojlanishiga muvofiq tarzda berilgan:

Yosh	5-6 oylik	1 yosh	2 yosh	3 yosh
So'z boyligi	Gugulash davri (ba-ba, ma-ma, gu-gu)	Kamida 10 ta	200-400 ta	500-600 ta qo'shimcha gap tuzib, she'r yodlay oladi

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bolaning ,umuman, insonlar ongining rivojlanishi bevosita ularning nutqi bilan bog'liq. Shuning uchun, maktabga qadam qo'yishi bilan bolaning aqliy va shaxsiy o'sish jarayoni jadallashadi. Muloqot mazmuni chuqurlashadi va xilma-xillashadi, maqsadlar ko'payib, muloqotchanlik vositalari takomillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent, 2007. — 146 b.
2. Turniyozov N. Tilshunoslikka kirish (ma'ruzalar matni). - Samarqand, 2006. — 80 b.
3. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi (amaliy va seminar mashg'ulotlar). Universitetlarning 5120100 - filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi) yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. - Namangan, 2015. — 80 b.
4. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Talqin, 2005. - 272 b.
5. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. — Toshkent: O'qituvchi, 1993. - 32 b.
6. Фердинанд де Соссюр. Заметки по общей лингвистики. - Москва: Прогресс, 1990.
7. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. - Toshkent: Universitet, 2002. - 28 b.